

“O‘rmon xo‘jaligi, tuproqshunoslik va o‘simliklarni himoya qilish” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muommolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
4.	Iqlim o‘zgarishi sharoitida cho‘l tuproqlari unumdorligini tiklash va ekologik sof mahsulot yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: -Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyaga uchragan tuproqlarning hozirgi agrokimyoviy, fizik-kimyoviy hamda ekologik holati aniqlanadi; -tuproqni haydov qatlamini tabiiy organik moddalar bilan boyitish maqsadida asosiy ekin turi tanlab olinadi va zamonaviy xorijda hamda o‘zimizda ishlab chiqarilgan yangi biopreparatlar sinaladi; -tuproqning agrokimyoviy, fizik-kimyoviy xossalari, zaharli elementlar bilan ifloslanish darajasini baholash va toksik elementlarni tuproqqa mustahkam bog‘lanish yechimlari ishlab chiqiladi; -tuproqlarning xossa-xususiyati va agrokimyoviy ko‘rsatkichlari asosida o‘rganilgan tumanlar uchun qishloq xo‘jaligi ekinlariga mineral o‘g‘itlarni qo‘llash koeffitsiyentlari ishlab chiqiladi; -olingan barcha ma‘lumotlar asosida tuproqlar unumdorligini saqlash va ekinlar hosildorligini oshirishga qaratilgan ilmiy yechimlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.